

**MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDА CHET TILI
O'QITISHNING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI**

Soqieva Jasmina SHerzodovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika ta'lif yo'nalishi talabasi

Tel : +998 88 225 03 23

Shomurotov Ulugbek Melikboboyevich-

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

o'qituvchi u.shomurotov@dtpi.uz

+998915107420

Annatatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish usullari yozilgan bo'lib, hozirda ingliz tili dunyo tili bo'lib bormoqda shu bois uni maktabgacha ya'ni boqcha yoshidan boshlash kerak maqola shu haqida ma'lumot beriladi , shuningdek maqolada maktabgacha ta'lif tarbiyalanuvchilarining ingliz tili faoliyatiga qiziqishlarini uyg'otish va rivojlantirish maqsadida qo'llanuvchi didaktik o'yinlar materiallari mazmun va tarbiyalanuvchilardagi ingliz tilida gapira olish qobiliyatlarini rivojlantirish ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ta'lif sifati.chet tili, malaka, sifat, texnologiya

Kirish: Hozirgi kunda ingiliz tilini maktabgacha ta'lif tashkilotlarda bolalarga o'yin orqali o'rgatishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, xalqimizda "Til bilgan el biladi" deb beziz aytilmagan. Maktabgacha ta'lif tashkilotlaridanoq bolalarga xorijiy tillarni o'rgatish va maktab ta'limga tayyorlab borish masalasi muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarga ingliz tilini o'rgatishida dars jarayonini didaktik loyixalashtirish dolzarb msala bo'lib unga ilg'or va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurdir. So'nggi bir necha yil ichida chet tilini o'rganish o'z-o'zini rivojlantirishning bir usuli emas, balki zarurat bo'lib qoldi. Chet tili nafaqat maktablar va universitetlarda, balki ko'plab qo'shimcha maktabgacha ta'lif muassasalarida ham ta'limga majburiy tarkibiy qismiga aylandi.

Asosiy qism. Bolalarda o'yin orqali diqqat xotira va idrokni qiyinchiliklarsiz shakllantirish mumkin. Chunki bola o'yin jarayonida o'zini erkin his etadi. O'yin o'ynayotgan paytidagi malumotlarni ham bajonidil qabul qiladi. Yani o'yin faoliyati orqali beriladigan malumotlar bolalar xotirasidan muommolarsiz o'rinn oladi. Bu o'rinda pedagogik, texnologik va fiziologik omillarga tayangan holda ingliz tilini o'rganish samaralar garovidir. Maktabgacha talim muassasalari tarbiyalanuvchilari o'yinlar jarayonida ingliz tilini o'rganar ekan, albatta malumotlarning ko'rgazmalilik tamoillariga amal qilish maqsadga muvofiq. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xorijiy

til bilishi jarayonlari ijtimoiy tasirlar asosida shakllanadi. Ularning diqqati, xotirasi, aqliy faoliyati va muloqatga kirishishi, ko'p hollarda ashqi munosabatlar va o'yin faoliyatining tasirchanligiga bog'liq ekanligi olimlar tomonidan taqiqlanadi. Maktabgacha yoshda, ingliz tilini o'qitishda, bolalar asta-sekin kommunikativ kompetentsiya asoslarini rivojlantiradilar, bu ingliz tilini o'rganishning dastlabki bosqichida quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi. Chet tilni o'rganish uchun erta yosh afzalroq bo'lishining yana bir sababi bor. Bola qancha yosh bo'lsa, shuncha kamroq bo'ladi. So'z boyligi yilda mahalliy til, ammo shu bilan birga uning nutqiga bo'lgan ehtiyojlari ham kam: kichik bolada aloqa sohalari katta yoshdagilarga qaraganda kamroq, u hali murakkab aloqa muammolarini hal qilishi shart emas. Bu shuni anglatadiki, u chet tilini o'zlashtirganda, ona va chet tillaridagi imkoniyatlar orasidagi bunday katta farqni sezmaydi va uning muvaffaqiyat hissi kattaroq bolalarnikiga qaraganda yorqinroq bo'ladi. Bolalarni o'qitish - bu maktab o'quvchilari va kattalarga qaraganda mutlaqo boshqacha uslubiy yondashuvni talab qiladigan juda qiyin masala. Agar kattalar chet tilida gaplashsa, bu uning boshqalarga o'rgatishi mumkin degani emas. Uslubiy jihatdan nochor darslarga duch kelganda, bolalar uzoq vaqt davomida chet tilidan nafratlanishlari va o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchlarini yo'qotishlari mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan faqat tajribali mutaxasislar ishlashi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u shunchaki stolda o'tirib, kitob va daftarlarni varaqlamaydi. Jarayon zerikarli bo'lmasligi kerak va bolalar o'zлari bilimga intilishlari kerak. Bolalar aniq o'ylashadi, hamma narsani so'zma-so'z qabul qiladilar, gapishadi oddiy jumlalar. Agar o'qituvchi nimanidir tushuntirsa, u aniqlik, misol keltirishi kerak. Shuning uchun ingliz tili maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin. Faqatgina ushbu shakl orqali siz ijobiy natijalarga erishishingiz va bolada chet tiliga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishingiz mumkin. Ta'lif shakllari iloji boricha ko'proq leksik birliklarni o'zlashtirishga emas, balki mavzuga qiziqishni tarbiyalashga, bolaning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga va o'z fikrlarini ifoda etishga qodir bo'lishi kerak. Bolaning ona tilini egallah prosseslari ustida kuzatishlar olib borar ekan, bolalar o'yin jarayonida o'z faoliyatlarini mantiqiy xronologik izchillikda bayon qilishi, harakatlarini sharxlash ehtiyojini his qilishlarining guvohi bo'ldi. Bu kuzatishlar faoliyat hamda harakatlarni sharxlash ehtiyojini his qilishining guvohi bo'ldi. Bu kuzatishlar faoliyat hamda harakatlarni shu tarzda bayon qilish va sharplash tilini o'rgatish zaminida yotadi. Shuning uchun ham ularni chet tillarni o'qitishga asos qilib olish kerak degan xulosaga olib keladi. Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bog'cha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan manashu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatları, nutqi rivojlanadi, xorijiy tilni tez o'rganish xususiyatlari takomillashadi, hamda shaxsiy individual xususiyatlari insoniy fazilatlari tarkib topa

boshlaydi. Shuningdek, ona tilini va xorijiy tilni parallel ravishda o'zlashtirgan bolalarda idrok etish, taxmin qilish, tushunish, qiyoslash kabi ko'nikma, malakalar hosil bo'ladi. Ta lim - tarbiya ta siri bilan birga bolalar psixik xususiyatlarining taraqqiyotiga ularning faol faoliyatni rolini ham hisobga olish zarurdir.

Chunki bola tarbiyaning passiv obektigina bo'lib qolmasdan, balki o'z faoliyatlarini bilin o'ziga yani o'zining psixik taraqqiyotiga faol tasir qilib turadigan mavjudotdir. Qishloq joylardagi boshlang'ich mакtab o'quvchilari odatda ingliz tili muhitidan ancha uzoq bo'lgan sharoitda o'sishadi va bolalarning fikrashi mavhum shaklda qolaveradi, bolalarning yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayoni doimo hissiyotlarga tayangan holda kechadi. Shuning uchun, bog'cha yoshidagi bolalarga ingliz tili o'qituvchilari o'qitishda oson metodikalar orqali, o'quvchilar atrofidagi buyumlardan, kartochkalardan va boshqa o'quv qo'llanmalaridan to'liq foydalanishadi. "Banana" va "apple" kabi so'zlarni o'qitishda o'qituvchilar banan va olma kabi mevalarni ko'rsatib birdaniga rangni bildiruvchi yangi so'zlarni ham o'rgatib ketishlari mumkin. Bolalar o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun sinfdagi narsalar orqali ularni chet tilida qo'llanilishini o'rgatib borishadi.

Xulosa o'rнida shuni ta'kidlab o'tish joizki, har bir maktabgacha ta'lim muasasasi hozirgi innovatsion rivojlanish davrida muassasada tarbiyalanuvchi bolalarni chet tilini o'rgatishga chuqurroq e'tibor qaratib ularga ta'lim beruvchi tarbiyachilarni pedagogik mahorat va ta'lim berish uchun metodik asoslari mahorat darslari orqali o'rgatishni tashkil etish lozim. Respublikasida maktabgacha talim jarayonida xorijiy tillardan og zaki nutqini o'stirishning zamonaviy metodikalariga berilgan katta ahamiyat, hamda ularni o'rganish uchun zarur bo'lgan zamonaviy o'qitish usullarini kengroq joriy qilish lozim. Hozirgi kunda Xitoydagi barcha bog'chalar multimedia qurilmalari bilan ta'minlangan. Bolalar uchun ingliz tili qo'shiqlaridan tortib she'r va hikoyalar, videoroliklar orqali o'rgatib kelinmoqda. Bu zerkilarli til darslarini qiziqlarli kunlik o'yinga aylantiradi. Xitoy bog'chalarida bir gruhda 10 ga yaqin tarbiyalanuvchi bo'lib, tarbiyachi muntazam har bir bolani pisixologiyasidan kelib chiqqan holda ularga tarbiya usuli qo'llaniladi. Bu tarbiyachidan faqatgina tarbiyachi bo'lib qolishni emas bir vaqtning o'zida rassom, musiqachi, chet tili o'qtuvchisi, va yaxshigina psixolog ona bo'lishni ham talab qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. V.I.Loginova, P.G.Samorukovalar taxriri ostida «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi».«O'qituvchi»T.,1991y.
2. «Uchinchi mingyillikning bolasи» T.,Ma'rifat-madadkor.2002. 3.T.S.Komarova.
3. Bolangiz maktabga tayyorga tayyormi». T., Ma'rifat-madadkor.2002.
4. Jamol Jalolov chet til O 'qitish metodikasi,O 'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi toshkent - 2012